

MOLIYAVIY HISOBOTNING SIFAT XUSUSYATLARI
КАЧЕСТВЕННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ
FINANCIAL REPORTING QUALITY INDICATORS

Dilara Dilshodjon qizi Erkinova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti iqtisodiyot fakulteti magistri
dilara.erkinova@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada moliyaviy hisobotni tuzishda amal qilish kerak bo‘lgan qoidalar, moliyaviy hisotning sifat xususiyatlari va moliyaviy hisobot elementlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: hisobot elementlari, daromad, xarajat, foyda, zarar, xarajat, tannarx, sof foyda, hisobot sifati, taqdim etish muddati

Аннотация: В данной статье описаны правила, которым необходимо следовать при составлении финансовой отчетности, качественные характеристики финансовой отчетности и элементы финансовой отчетности.

Ключевые слова: элементы отчетности, доход, себестоимость, прибыль, убыток, себестоимость, себестоимость, чистая прибыль, качество отчетности, срок представления

Abstract: This article describes the rules to be followed in the preparation of financial statements, the qualitative characteristics of financial statements and the elements of financial statements.

Key words: reporting elements, income, cost, profit, loss, cost, cost, net profit, reporting quality, presentation period

Moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlari bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir, chunki ular bir hil operatsiyalar va hodisalarini turli javhalarini aks ettiradi. Hisobotning har bir shakli boshqalardan farq qiladigan ma’lumotni berishiga qaramasdan, hech biri bir ashyo yakkalanib qolmaydi va foydalanuvchilar uchun muayyan ehtiyojlarini aks ettiruvchi kerakli bo‘lgan barcha ma’lumotni yetkazib bera olmaydi. Masalan, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot, muvozanat va moliyaviy ahvolni o‘zgarishi haqidagi hisobotlarning ma’lumotlarisiz foydalansa, korxonaning moliyaviy natijalari haqida to‘liq axborotni bera olmaydi. Moliyaviy hisobotning quyidagi sifatlari mavjud:

Tushunarlılik. Moliyaviy hisobotda taqdim ettirilgan ma’lumotning asosiy sifati, bu foydalanuvchilar tomonidan tushunarli bo‘lishidadir. Bunda, faraz qilinadiki, foydalanuvchilar xo‘jalik va iqtisodiy faoliyat sohasida, buxgalteriya hisobi sohasida yetarlicha bilimlarga ega bo‘lishi, shuningdek talab qilinadigan darajada qunt bilan harakat qilish istaklari bo‘lishi lozim. Biroq, murakkab savollarga taalluqli, foydalanuvchilarni iqtisodiy qarorlarni qabul qilishi uchun o‘rinli bo‘lgan ma’lumot,

faqat ma'lum foydalanuvchilar tomonidan tushunish murakkabligi sababli chiqarib tashlanishi mumkin emas.

O'rnlilik. Foydali bo'lish uchun ma'lumot qarorlar qabul qiluvchi foydalanuvchilar uchun o'rnlili kerak. Foydalanuvchilarni iqtisodiy qarorlariga ta'sir etib, ularga o'tib ketgan, hozirgi paytda amalga oshiriladigan va kelajakda bo'ladigan hodisalarini baholash uchun yordam beradigan yoki ularni tasdiqlaydigan yoxud avvalgi baholarni tuzatish imkoniyatini yaratgan ma'lumot o'rnlili deb hisoblanadi.

Muhimlik. Ma'lumotning o'rnliligiga uning tavsifi va muhimligi jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi holatlarda faqat ma'lumot tavsifi uning o'rnliliginani aniqlash uchun yetarli bo'lmaydi. Masalan, yangi segment haqidagi ma'lumot, hisobot davrida ushbu yangi segment tomonidan erishilgan natijalar muhimligidan qat'i nazar tavakkalchilik va imkoniyatlarni baholashga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Boshqa vaziyatlarda tavsif ham, muhimlik ham jiddiy ahamiyatga ega, masalan muayyan faoliyat turiga tegishli, mavjud bo'lgan asosiy zahiralarni hajmi. Ma'lumot shunday vaqtida muhim bo'ladiki, agarda shu ma'lumotning berilmasligi yoki uning noto'g'ri talqin qilinishi foydalanuvchilar tomonidan iqtisodiy qarorlarni qabul qilishga o'z ta'sirini ko'rsatsa yoki mazkur qarorni o'zgartirishga ehtimoli mavjud bo'lsa. Muhimlik, muayyan sharoitda baholanadigan ma'lumotni bermaslik yoki uni buzib ko'rsatilishiga bog'liq xato yoki moddaning miqdoriga bog'liqdir. Shunday qilib, muhimlik ma'lumot foydali bo'lishi uchun uning asosiy sifat tavsifi bo'lmay, odatda hisob boshlanishning nuqtasi sifatida ko'riladi.

Ishonchlilik. Foydali bo'lishi uchun ma'lumot shuningdek ishonchli bo'lishi kerak. Ma'lumot agar unda ahamiyatli xato yoki bilib qilingan buzib ko'rsatishlar bo'limsa, foydalanuvchilar ushbu ma'lumotga haqqoniyat bilan taqdim etilganligiga tayanishi mumkin bo'lsa, ishonchli deb hisoblanadi. Ma'lumot o'rnlili bo'lib turib, o'z tavsifi va taqdim etilishi bo'yicha shunchalik ishonchli emas bo'lishi mumkinki, uning tan olinishi keyinchalik yanglish qarorlarni qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Haqqoniy va xolis taqdim etilishi. Foydali bo'lishi uchun, ma'lumot xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoli, operatsiyalar natijalari, pul mablag'lari harakati to'g'risida haqqoniy va xolis tasavvur yaratishi kerak. Shunday qilib, masalan, muvozanat operatsiyalar va boshqa hodisalarini va ularni amalga oshirish natijasi bo'lgan, tan olish mezonlariga javob beradigan kompanianing aktivlari, majburiyatlarini va kapitalini haqqoniy va xolis aks ettirishi kerak.

Mazmunining shakldan ustunligi. Agar hisob-kitob hujjatlarida va moliyaviy hisobotda axborot operatsiyalar va voqealarning mazmunini ishonchli darajada aks ettirsa, bunday axborot uning huquqiy shakli bilangina emas, balki mohiyati va haqiqiyligi bilan muvofiq holda hisobga olinishi va taqdim etilishi zarur. Operatsiyalar

va boshqa hodisalarning mazmuni ularning huquqiy yoki belgilangan shakliga har doim ham muvofiq kelmaydi.

Moliyaviy hisobotdagi betaraflik. Moliyaviy hisobotda beriladigan axborot ishonchli bo‘lishi uchun taxminlardan mustaqil bo‘lishi lozim. Moliyaviy hisobot ma’lumotning tanlash va taqdim etishi bilan qarorlarni qabul qilinishiga yoki oldindan belgilangan natija yoki yakunga yetishish maqsadida fikrni shakllantirishga o‘z ta’sirini ko‘rsatsa u betaraf deb hisoblanishi mumkin emas.

Ehtiyotkorlik (konservativizm). Qarorlar qabul qilishda ehtiyotkorlik qoidasiga rioya qilish aktivlar va daromad qaytadan baholanmasligi, majburiyatlar yoki xarajatlar esa yetarlicha baholanmasligiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida noaniqlik sharoitida baho chiqarish uchun zarurdir. Konservativizm (ehtiyotkorlik) tamoyili bo‘yicha cheklov quyidagini taxmin qiladi: agar konseptual tamoyillari va foydalilaniladigan tamoyillariga muvofiq bir hildagi ikki imkoniyat mavjud bo‘lsa, unda, u sof foydaga va/yoki aktivlarni umumiyligi summasiga kamroq bo‘lgan ijobiy ta’sirini ko‘rsatadigan imkoniyatni afzal deb ko‘rish va qo‘llash kerak. Agar daromadlarni baholashda ikki turlicha bo‘lgan imkoniyatga ruxsat etilsa, hisobotda u eng kichik bo‘lgan bahoda aks ettirilishi kerak. Agar, buxgalteriya hisobotida daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlarni aks ettirishda ikki turlicha imkoniyatlardan qaysi birini qo‘llashni hal etishda asosli shubha paydo bo‘lsa, sof daromadga eng kam bo‘lgan ijobiy samarani aks ettiruvchi summa ko‘rsatilishi kerak.

To‘liqlilik. Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minalash maqsadida axborot yetarlicha to‘la hajmda taqdim etilishi kerak.

Ko‘rsatkichlarning qiyosiyligi. Moliyaviy axborot foydali va mazmunli bo‘lishi uchun, bir hisobot davridagi axborot boshqa hisobot davridagisi bilan qiyoslanadigan bo‘lishi kerak. Foydalanuvchilar xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotni tayyorlashda foydalanadigan hisob-kitob siyosatidan, ana shu siyosatdagi barcha o‘zgarishlardan va shunday o‘zgarishlarning natijalaridan xabardor bo‘lishlari lozim.

Hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi. Hisobot davrida bo‘lgan daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi shuni anglatadiki, mazkur davrda ushbu hisobot davridagi daromadlarni olishga asos bo‘lgan xarajatlarga aks ettiriladi. Agar daromadlar bilan xarajatlarning o‘rtasida bevosita bog‘liqlikni o‘rnatish qiyin bo‘lsa, xarajatlar biron-bir taqsimlash tizimiga muvofiq bir nechta hisobot davrlari o‘rtasida taqsimlanadi. Bu, masalan, bir necha yilga taqsimlanadigan amortizatsiya xarajatlariga taalluqlidir.

Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy bahosi. Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholash qoidasi shundan iboratki, ularning tannarxi yoki sotib olish qiymati asosiy bahodir. Standartlarda ko‘zda tutilgan ayrim hollarda haqiqiy baho sotib olish qiymatidan farq qilishi mumkin.

Izchillik. Hisob siyosati bir davrdan ikkinchi davrga izchil o‘tkazilib boradi deb hisoblanadi. Foydalanuvchilar xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolidagi o‘zgartirish tamoyilini belgilash uchun har xil hisobot davrida ularning moliyaviy hisobotlarini taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak.

O‘z vaqtida taqdim etish. Hisobot axborotining assossiz darajada kechiktirilishi bilan u o‘zining iqtisodiy ahamiyatini yo‘qotadi. Axborotni o‘z vaqtida taqdim etish uchun bitimning yoki boshqa voqeanning barcha jihatlari ma’lum bo‘lgunga qadar hisobotga zarurat paydo bo‘lishi mumkin, bu esa uning ishonchliligini buzadi. Boshqa tomondan, agar hisobot barcha jihatlar ma’lum bo‘lguncha kechiktirilsa, hatto eng ishonchli axborot ham foydalanuvchilarga katta foyda keltirmaydi, chunki ular ilgariroq qaror qabul qilishga majbur bo‘ladilar. Ahamiyatlilik bilan ishonchlilik o‘rtasida mutanosiblikka erishish maqsadida iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qanday qilib eng yaxshi tarzda qondirish masalasini hal etish kerak.

Naflar va xarajatlar orasidagi muvozanat. Naflar va xarajatlar orasidagi muvozanat sifatga oid tavsif emas, aniqrog‘i tamoyil bo‘yicha cheklovdir. Ma’lumotdan olinadigan naf uning olish uchun sarflangan xarajatlardan oshiq bo‘lishi kerak.

Sifatga oid tavsiflar orasidagi muvozanat. Amaliyotda ko‘pincha sifat tavsiflari orasida muvozanat yoki o‘zaro kelishuv bo‘lishi kerak. Bundan maqsad tavsiflar orasida tegishli muvofiqlikka yetishishdir. Turli sharoitlarda tavsiflarni nisbiy muhimligi - kasbiy mulohazaning ishidir.

REFERENCES

1. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (25.02.2020 yil, PQ-4611).
2. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IAS)
3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va ularga o‘tish zaruriyati. S.N.Tashnazarov. Iqtisod va moliya/Ekonomika i finansi, Samarqand, 2016
4. Abdurahimovna, C. D., & Sultanbekovna, M. M. (2022). Cost and Accounting Concepts in Accounting and Their Accounting. *Global Scientific Review*, 4, 21-26.
5. Чилматова, Д. А., & Орипов, А. А. (2020). ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИДА ХАРАЖАТЛАРНИ ТАННАРХГА ОЛИБ БОРИШ УСУЛЛАРИ. In МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ (pp. 582-586).
6. Chilmatova, D. A. (2019). Minimum standards of remuneration for labor and its reflection in accounting in Uzbekistan. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 161-165.

7. Chilmatova, D. A. (2020). ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ. In *МИНТАҚА ИҚТISODIЁТИНИ ИНVESTИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 315-319).
8. Чилматова, Д. А. (2022). МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШНИ ЖАДАЛЛАШТИРИШ. *Scientific progress*, 3(2), 552-558.
9. Чилматова, Д. А. (2020). Интеграционный процесс между странами Центральной Азии. *Образование и наука в России и за рубежом*, (3), 67-68.
10. Чилматова, Д. А., & Холикбердиева, Д. Ё. (2021). ПРИРОДИТЕТНАЯ ЗАДАЧА: ПЕРЕХОД НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ (МСФО). *Актуальные научные исследования в современном мире*, (2-7), 175-177.
11. Чилматова, Д. А. (2020). РАЗВИТИЕ СЕРВИСНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ И ВОПРОСЫ ВВЕДЕНИЯ В МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ УЧЕТА. In *МИНТАҚА ИҚTISODIЁТИНИ ИНVESTИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 271-278).
12. Chilmatova, D. A. (2022). ASSESSMENT OF THE EFFECTIVENESS OF FINANCING INVESTMENT ACTIVITIES IN THE ECONOMY OF THE REGION. *Gospodarka i Innowacje*, 29, 74-80.
13. Chilmatova, D. A. (2022). Transition to International Financial Reporting Standards. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 39-43.
14. Чилматова, Д. А. (2022). МИНТАҚА ИҚTISODIЁТИДА ИНVESTИЦИЯ ФАОЛИЯТИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ. *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*, 6(6), 97-102.
15. Чилматова, Д. А. (2022). Молиявий хисоботнинг халқаро стандартлариiga ўтиш борасида олиб борилаётган изчил тадбирлар. *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*, 1(2), 105-109.
16. Чилматова, Д. А. (2021). Республикада меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам меъёрлари. *Халқаро онлайн илмий-амалий анжуман*, 1(5), 169-171.
17. Чилматова, Д. А. (2022). Асосий ва қўшимча таътилларни бухгалтерияда ҳисобга олиш тартиби. *Халқаро онлайн илмий-амалий анжуман*, 1(5), 163-168.
18. Чилматова, Д. А., & Холикбердиева, Д. Ё. (2021). ПРИРОДИТЕТНАЯ ЗАДАЧА: ПЕРЕХОД НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ (МСФО). *Актуальные научные исследования в современном мире*, (2-7), 175-177.

19. Jumakulov, Z., & Kunduzova, Q. I. (2021). Financial Independence in the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan: Results and Conclusions. *Middle European Scientific Bulletin*, 19, 236-241.
20. Жумақулов, З. И., & Кундузова, Қ. И. (2020). Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва озиқовқат хавфсизлигини таъминлаш. In *Минтақа Иқтисодиётини Инвестициялашнинг Молиявий-Хуқуқий Ва Инновацион Жиҳатлари* (pp. 604-608).
21. Рахимов, Д. (2015). Инвестицион хамкорлик корхона тараққиётининг омили сифатида. *Scienceweb academic papers collection*.
22. Jumakulov, Z., & Madaminov, A. (2022). Economic Factors of Introduction of the "University 3.0" Concept in Uzbekistan. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 143-146.
23. Jumakulov, Z. I. (2022). IMPLEMENTATION OF PUBLIC PRIVATE PARTNERSHIP RELATIONS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 104-108.
24. Raximov, D. (2021, December). DETERMINED CRITERIA FOR DIVERSIFICATION IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 60-64).
25. Jumakulov, Z. I. (2022). Foreign Experiences of Organizing Financial Independence of Higher Education Institutions. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 62-65.
26. Jumakulov, Z. I., & Madaminov, A. M. (2022). ISSUES OF IMPLEMENTATION OF THE UNIVERSITY 3.0 CONCEPT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 81-83.
27. Jumakulov, Z. I. (2022). Development of the Cluster System in Agriculture in Uzbekistan. *INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY*, 1(5), 226-229.
28. Jumakulov, Z. I. (2022). ISSUES OF FOOD SECURITY IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 246-249.
29. Рахимов, Д. (2015). Ўзбекистон лизинг хизматлари бозорининг ривожланиш денденциялари. *Scienceweb academic papers collection*.
30. Жумақулов, З. И., & Кундузова, Қ. И. (2020). Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва озиқовқат хавфсизлигини таъминлаш. In *Минтақа Иқтисодиётини Инвестициялашнинг Молиявий-Хуқуқий Ва Инновацион Жиҳатлари* (pp. 604-608).
31. Рахимов, Д. (2022). Саноатни диверсификациялаш иқтисодиётнинг муҳум омили. *Scienceweb academic papers collection*.
32. Mannapova, M., & Abdullayeva, S. (2022). THE WORK DONE AND THE DESIGNATED TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF FRUIT AND

VEGETABLE CLUSTERS IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1126-1129.

33. Абдуллаева, Ш. Э., & Маннопова, М. С. (2022). Основные направления развития и управления плодовоовощными кластерами. *Ta'lim fidoyilari*, 6(7), 507-512.
34. Mannopova, M. S. (2022). Main Directions of Development of Fruit and Vegetable Clusters in Agriculture of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 106-109.
35. Mannopova, M. S., & Khalildinov, A. A. (2022). THE IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF FRUIT VEGETABLE CLUSTERS IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 117-120.
36. Рахимов, Д. Ш. (2021). Худуд саноатини диверсификациялашнинг инновацион стратегик мақсадлари. *Халқаро миқёсидаги илмий-амалий анжумани*, 1(1), 24-25.